

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVYI-  
AXLOQIY TARBIYALASHDA INTEGRATSIYALASHGAN  
TA'LIMNING PEDAGOGIK -PSIXOLOGIK SHART –SHAROITLARI**

*Djurayeva Gavhar Nuriddin qizi*

*Toshkent shahar Puchon universiteti ta'lim muassasalarining boshqaruvi  
yònalishi 1-bosqich magistranti.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik - psixologik shart –sharoitlari va integratsiyalashgan ta'lim, ta'lim jarayonini tashkil qilishda integratsiyadan foydalanish, ta'lim sifatini oshirishda integratsiyalashgan ta'limning didaktik tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi.*

***Kalit so'zlar:** Integratsiya, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, integrativ dars, samara, ko'nikma, malaka, amaliy mashqlar, pedagogik -psixologik shart –sharoitlar.*

***Abstract:** This article studies the pedagogical and psychological conditions of integrated education in the spiritual and moral education of preschool children and the specific features of the didactic principles of integrated education, the use of integration in organizing the educational process, and improving the quality of education.*

***Keywords:** Integration, spiritual and moral education, integrative lesson, effectiveness, skills, qualifications, practical exercises, pedagogical and psychological conditions.*

## **KIRISH**

Maktabgacha pedagogika yosh avlodni ma'naviy - axloqiy rivojlanishida tarbiyani muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanashida eng muhim boshqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga

yo'naltirilgan tarbiya-tarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab ma'naviy- axloqiy tarbiya berib borish muhimdir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy- axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Ma'naviy- axloqiy tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda amalga oshirish. Turli xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin, ommaviy axborot vositalari – oynai jahon, radio va boshqalar bolalarning ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib etishlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy- axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini xurmat kilgan xolda yondashish;

- axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan birga olib borish;
- bolalarning faolligi;
- oila va MTTlarining tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- bola shaxsidagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- bola shaxsini har tomonlama rivojlanishini ko'zda tutish.

Ma'naviy- axloqiy tarbiya printsiplarini pedagogik shart-sharoit bilan qo'shib amaga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy- axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviy- axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1-guruh. Axloqiy ongini, axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xoxishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

2-guruh. Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

3-guruh. Axloqiy his tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga tilgan yordamchi metodlar.

Yuqorida keltirilgan barch metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi.

Bu guruh metodlariga qo'yiladigan asosiy talablar asosan; bolalarning yaxshilik, yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish; axloqiy xulq-atvor no'rmalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish. Bolani no'rin tadqiq qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'iyan man qilinadi. Hamma metodlardan izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi.

Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab

mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, musatqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Axloqiy tarbiya metodlari - bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi.

Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalarni yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhimi boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish.

Kamtarlik, to'g'rilik, halolik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Kamtarlik har bir kishining eng muhim va oliyjanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadilar, ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday xolatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o'rtog'iga o'rgatish kerakligini, o'z-o'zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi. Sofdillik va rostgo'ylikni tarbiyalash

yolgʻonchilik va vijdotsizlik paydo boʻlishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bogʻliqdir. Baʼzi bolalar oʻzlari toʻqigan, kattalardan eshitgan eraklarini tushlarida koʻrgandek qilib koʻrsatishga urinadilar. Bunday holda ham urushmasdan «Ertak» toʻqishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak.

Shunday qilib, maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalardagi harakterning ijobiy naʼmunalarini, ularning yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Dunyoda integrativ taʼlimning rivojlanishi ijtimoy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining oʻzaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yoʻnalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy taʼlimni oldiga qoʻygan talablarini qondirishga qaratilgan oʻquv-tarbiya jarayonini samarasini taʼminlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi. Oʻqituvchilarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajasidagi taʼlim muassasalari jumladan, Garvard Oliy taʼlim maktabining “Project Zero” tadqiqotchilari turli xil sharoitlarda fanlararo aloqadorlikni oʻrganib kelmoqda. Bu esa star-wiki.ru saytida oʻz ifodasini topadi. Ular fanlararo bogʻliqlik zamonaviy fikrlaydigan boʻlgʻusi boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari uchun juda muhim ekanligini taʼkidlab oʻtishadi. Shuningdek, “UC Berkeley Web Research Environment” (WISE) bilimlarni integratsiyalash nazariyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu esa dunyo taʼlim tizimi oldida boʻlgʻusi boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari tafakkurini rivojlantirish, ularni nazariy-metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatini belgilab beradi.

Didaktik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik oʻquv jarayonni bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham taʼminlaydi. Ayniqsa, boshlangʻich taʼlim jarayonining serqirra va oʻziga xosligini inobatga olgan holda, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini tayyorlashda metodik fanlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini taʼminlaydi. Turli fan elementlarini

yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o'ziga xos o'rganish predmetini o'z ichiga olgan holda fanlarni xususiyatlariga ko'ra bog'lovchi kurslar integratsiyalashgan kurslarning mazmunini anglatadi. Pedagogikada integratsiyalashgan kurslar tasnifini turli xususiyatlariga ko'ra amalga oshirish mumkin:

- kursning maqsad va muammolariga ko'ra;
- tabiiy-ilmiy tizimdagi fanlarning umumiy vazifalariga ko'ra;
- fan tarmoqlarining o'zaro aloqadorligiga ko'ra; o'quv predmetlarining integratsiyalash usullari va yo'llariga ko'ra;
- fanlarning o'quv rejasidagi o'rniga ko'ra;
- o'quv predmetlari yoki mavzularini o'rganish uchun ajratilgan vaqtga ko'ra;
- beriladigan bilimlarning murakkablik darajasiga ko'ra va h. k.

O'quv predmetlarini tasniflashda va ulardan foydalanishda shuni e'tiborga olish kerakki, bu kurslarni tashkil etuvchilar odatda bir qancha maqsad va vazifalarni qo'yadilar. Shu sababli kurslar integratsion kursning maqsad va vazifalari tabiiy-ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishiga ko'ra tavsiflanadi. Bilimning o'quv rejasidagi o'rnini, ajratilgan soatlarning hajmi, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi – ko'p maqsadli va xilma-xilligi, ko'p tarmoqliligi hamda ko'p funkcionalligi bilan tavsiflanadi.

Didaktik tizimda integrativ darslar bir nechta yo'nalishlarda ifodalanadi:

- fanlararo integratsiya – bunda ikki yoki undan ortiq asosiy fanlar g'oyalari, nazariya va tushunchalari birlashtiriladi, integratsiyali rejalashtirish orqali amalga oshiriladi;
- yondosh fanlar integratsiyasi – o'zaro yaqin aloqada bo'lgan fanlarni integratsiyalash asosida yangi fanlarni vujudga keltirish. Buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;
- fundamental fanlar integratsiyasi – zamonaviy bilimlarning barcha tarmoqlari uchun asos bo'luvchi fanlar va ushbu fanga tegishli bo'lgan umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalarni integratsiyalash;

-yaxlit bir butun tizim bo'lgan kompleks ob'ektlarni o'rganish. Bunda "koinot, "jamiyat", "inson", "muhit", "tabiat" kabilarga oid bilimlar integratsiyalashtirib o'rganiladi;

-mahalliy (tabiiy – ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar – ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o'rni haqidagi qarashlar integratsiyalashtirib o'rganiladi;

-tabiat va jamiyat qonuniyatlaridagi yaxlitlikni tushunish va yaxlit shaxsiy munosabatni shakllantirish uchun tashkil etiladigan integratsiya;

-ko'rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar – evristik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar,antomimika, sahna ko'rinishlari, namunali qiroat bilan o'qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni echish topshiriqlarni o'zaro uyg'unlikda qo'llash;

-tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni hamda yaxlit integratsion asosda faoliyatni tashkil qilish zaruriyatini anglashga o'rgatish;

-o'quv rejasidagi o'rganilishi belgilangan ijtimoiy gumanitar, tabiiy-amaliy va texnik fanlarni mazmunan o'zaro ta'sirini inobatga olgan holda integratsiyalash;

-o'quv jarayonini samarali rivojlantirishning eng maq'bul usuli muammoni (o'rganiladigan mavzuni) taqdim etishni innovatsion yondashuvlarini sifatli qo'llay olish;

-ta'lim jarayonida tabiiy – ilmiy va gumanitar fanlarni o'zaro bog'lashda o'quv faoliyatini insonparvarlashtirish;

-tabiat-jamiyat tizimining ob'ektiv o'zaro munosabatlarni o'zlashtirishi bilim oluvchilar shaxsini shakllantirishni nazarda tutuvchi integratsion mashg'ulotlar tashkil etish;

-bilim oluvchilarda integratsion bilim, ko'nikma, malaka, tasavvurlarni hosil qilish;

-har bir o'quv materialini o'zlashtirishda talabalarda motivatsiyani hosil qilinishi ushbu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, o'quv materiali

haqida yaxlit tushuncha hosil bo'radi va xotirada mustahkam saqlanadi, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurining rivojlanishiga olib keladi.

### **XULOSA**

Integratsion kurslarning tashkil etilishi talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligi davomida quyidagi tafakkur shakllarini hamda nazariy-metodik malakalarni tarkib toptirishga yordam beradi:

-Tabiiy ob'ektlar haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

-Pedagogik – psixologik tizimda fanlararo o'zaro aloqani shakllantirish;

-O'quv materiallarini anglash, jarayonga moslashish ko'nikmasini shakllantirishda yangi materialni tushuntirishda manbalarni turli fanlar kontekstidan izlash;

-Mutaxassislik fanlarini o'qitishda integrativ kurslarni tizimli yo'lga qo'yish;

mutaxassislik fanlarini o'qitishda talabalarning kompleks bilimlarini shakllantirish integrativ usul va vositalar orqali amalga oshirib borilishini ta'minlashga erishish. Bu esa integrativ bilimlarni mustahkam o'zlashtirish va hissiy ongni shakllantirishga yaqindan yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A. Xodjaboyev, I.Husanov "Kasbiy ta'lim metodologiyasi" Toshkent.-2007
2. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. diss. –T.: 2004. -163 b.
3. M.A. Urinboyeva, N.Sh. Djumanova, G.X. Karimova, Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini integratsiyalash davr talabi-ilmiy maqola, Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya konferensiyasi
4. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005.



5. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok.diss. –T.:2007, -315 b
6. Olimov Q.T. va boshqalar Kasb ta'limi uslubiyati “Iqtisod moliya” Toshkent., 2006 y. 192 b.
7. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova “Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya” o'quv qo'llanma, Toshkent.: – 2013
8. Sh. Nazirova, ta'lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar- ilmiy jurnal, Nam-2021. 80-bet.